
MEHRIBONLIK UYLARIDA NAVOIYXONLIK

Farg'ona viloyati hokimligi, viloyat prokuraturasi, voyaga yetmaganlar ishlari bo'yicha viloyat idoralararo komissiyasi, viloyat xalq ta'limi boshqarmasi hamkorlikda Marg'ilon shahar 1-Mehribonlik uyi hamda Qo'qon shahar 12-Mehribonlik uylari tarbiyalanuvchilariga buyuk mutafakkir shoir va davlat arbobi Alisher Navoiy tavalludining 579 yilligiga bag'ishlab, tadbir tashkil etdilar.

■ Unda Navoiyning "Sab'ai sayyor", "Navoiy va Boyqaro" sahna asarlari namoyish etildi.

■ Shuningdek, Mehribonlik uylari tarbiyalanuvchilari Alisher Navoiy g'azallari bilan aytiladigan musiqiy chiqishlarni namoyish qildilar.

■ Mehribonlik uylari tarbiyalanuvchilariga tashkilotchilar tomonidan kitoblar jamlanmasi hamda sovg'alar berildi.

Farg'ona viloyati hokimligi Axborot xizmati

Facebook, Telegram, Veb sayt, YouTube

2020-02-10 15:06:11